

TOSHKENT VILOYATI HUDUDLARINING IQTISODIY - IJTIMOYIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI

Turg'unova Robiya Fazliddin qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi

Annontatsiya. Ushbu maqolada Toshkent viloyati resurslarning hududlar bo'ylab tasimlanishi, viloyat ijtimoiy – iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil etilgan. Viloyatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlariga doir yechimlar berilgan. Hamda, viloyatdagi mavjud resurslarda to'laqonli va samarali foydalanish bo'yicha yechimlar berilgan.

Kalit so'zlar. Toshkent viloyati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, bandlik, ishsizlik, ta'lim, sog'liqni saqlash, sanoat, qishloq xo'jaligi.

ECONOMIC AND SOCIAL INDICATORS OF DEVELOPMENT OF REGIONS OF TASHKENT REGION

Turg'unova Robiya Fazliddin qizi

Student of Chirchik State Pedagogical University

Abstract. This article analyzes the distribution of resources of Tashkent region by regions, socio-economic indicators of the region. Solutions are given on the directions of socio-economic development of the region. Solutions on full and effective use of available resources of the region are also given.

Keywords. Tashkent region, socio-economic development, employment, unemployment, education, health care, industry, agriculture.

Kirish. Toshkent viloyati O'zbekistonning shimoli – sharqiy qismida joylashgan. Viloyatning hududi tog'li va tekisliklardan iborat. Shimol va shimoli – sharq – Qozog'iston, janubi – sharq – Qirg'iziston, janub va g'arb – o'zbekistonning ichki hududlari (Namangan, Sirdaryo, Jizzax viloyatlar). Toshkent viloyati 1938 yil tashkil topgan bo'lib, viloyat tarkibida 15 ta tuman, (Bo'ka, Bekobod,

Bo'stonliq, Zangiota, Oqqo'rg'on, Ohangaron, Parkent, Piskent, Chinoz, Yuqori Chirchiq, Yangiyo'l, O'rta Chirchiq, Qibray, Quyi Chirchiq); 17 ta shahar (Angren, Bekobod, Bo'ka, Do'stobod, Keles, Olmaliq, Oqq'org'on, Ohangaron, Parkent, Piskent, Toshkent, To'ytepa, Chinoz, Chirchiq, Yangiyo'l, Yangiobod, G'azalkent); 18 shaharcha (Alimkent, Bo'zsuv, Gulbahor, Zafar, Iskandar, Krasnagorsk, Nurobod, olmazor, Salor, Tuyabog'iz, Chig'iriy, Chorvoq, eshonguzar, Yangibozor, Yangi Chinoz, Yangihayot, O'rtaovul) mavjud. Ma'muriy markazi Nurafshon shahri. Maydoni 15300 km ga teng. Hudud O'zbekistonning shimoli – g'arbida, Tyanshan tog'i bilan Sirdaryo daryosi oralig'ida joylashgan.

Hududlarning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini o'rganishning ahamiyati juda katta. Xususan, **rejalashtirish va strategik rivojlanish**; Bunda hududning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali kelajakdagi rivojlanish rerjalari ishlab chiqiladi. Iqtisodiy o'sishning qaysi sohalarda ustuvor bo'lishi lozimligini ta'minlaydi. **Investitsiyalarni jalb qilish**; rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan hududlarga investorlar ko'proq qiziqadi. Kam rivojlangan hududlarni aniqlash va ularga davlat yoki xususiy sektor tomonidan investitsiyalar yo'naltirishga yordam beradi. **Aholini faravonligini aniqlash**; Bandlik, daromad darajasi, infratuzilma va xizmatlar sifatini baholash orqali aholi hayot darajasini yaxshilash choralari ko'riladi. Hududlar o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirish uchun ijtimoiy dasturlar ishlab chiqiladi. **Resurslarni samarali taqsimlash**; Davlat va xususiy sektor resurslarini eng muhim va dolzarb yo'naltirish imkonini beradi. Kam rivojlangan hududlarda infratuzilma, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari uchun mablag'lar ajratiladi. **Muammolarni hal qilish**: ishsizlik qashoqlik, migratsiya kabi muammolarni aniqlash va ularga yechimlarni topishga yordam beradi. Ekologik muammolar yoki iqtisodiy tanazzul xavflarini oldindan bilish va ularga tayyorgarlik ko'rish imkonini beradi.

Ma'lumki, hudud maydoni qanchalik katta bo'lsa, uning bor xususiyatlarini o'rganish birmuncha qiyinroq kichadi. Chunki, hududlarning iqtisodiy – ijtimoiy,

geografik xususiyatlari turlicha va ayrim hollarda bir – biridan keskin farq qilishi ham mumkin. Hududlarning ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini o'rganish quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib boriladi;

Asosiy qism. Toshkent viloyati hududining ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari;

Demografik holati; Toshkent viloyati aholisi 2024 – yil (1- oktabr) holatiga ko'ra, doimiy aholi soni 3094,9 ming kishini tashkil ilgan. Va yil boshidan 43,1 ming kishiga yoki 1,4 % ga ko'paydi. Shahar aholisining ulushi 50,3% va qishloq aholisi 49,97% ni tashkil etgan.

Aholining zichligi 201.2 kishi/km² Diniy tarkibida musulmonlar yetakchilik qiladi. Milliy tarkibida o'zbeklar (60.9%), qozoqlar (14,3%), ruslar (8.1%), tojik (5.0%), koreys, ukrain va boshqa 80 dan ortiq millat vakillari yashaydi.



1 - rasm. Toshkent viloyati doimiy aholisining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Ta'lim sifati. Aholining savodxonlik darajasi oliy ma'lumotlilarning ulushi birmuncha pastroq. 2023/2024 – o'quv yilining boshiga Toshkent viloyatida jami 7256 ta talaba oliy ta'lim muassalarida ta'lim olmoqda. Viloyat aholisining tarkibida oliy ma'lumotlilar ulushi birmuncha pastroq, buni abituriyentlarning har yili oliy o'quv yurtlariga kirish ko'rsatkichlaridan bilib olish mumkin. (10- o'rin).

Endilikda viloyat aholisi uchun ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi (2024 – yil yanvar – avgust)1259,1 mlrd so'mni hamda o'sish 46,7 % ni tashkil etgan. Bu yuqoridagi muammoning yechimi sifatida qaratilmoda.

Migratsiya saldosini bir necha yillar davomida manfiy ko'rsatkichga ega bo'lgan. Ammo, hozirgi kunga kelib migratsiyaning manfiy saldosini qisqartirib bormoqda. Bu iqtisodiyotning va aholi turmush tarzining o'sishi bilan bog'liq. Masalan; 2004 – yilda ko'chib kelganlar 25777 kishini, ko'chib ketganlar esa 36961 kishini, migratsiya saldosini manfiy ya'ni -11184 kishini tashkil qilgan. 2016 – yilda esa ko'chib kelganlar 19689 kishini, ko'chib ketganlar esa 25425 kishini, migratsiya saldosini manfiy ammo, 2004 – yilga nisbatan kamaygan – 5736 kishi.

Bandlik va ishsizlik darajasi. Viloyat agroiqlimiy resurslarga bo'yliq sababli qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlangan. Va shunga mos ravishda aholining katta qismi qishloq xo'jaligi sohasida band. Ishchi kuchining ko'pligi bu yerda ishchi ko'p talab qilinadigan sohalarda qo'l keladi. Masalan; sanoatning to'qimachilik yoki tikuvchilik tarmoqlarini rivojlantirish uchun inson omili yetarlicha. Faqatgina tog'li tumanlarda bu biroz samaradorligi kamroq bo'lishi mumkin, sababi bunday hududlarda aholi tarqoq joylashgan ya'ni aholi zichligi past ko'rsatkichga ega bo'ladi.

Sog'liqni saqlash; 2024 -yil 1- yanvar holatiga Toshkent viloyatida kichik tadbirkorlik subyekti sifatida faoliyat yuritayotgan barcha mutahassislikdagi shifokorlar jami soni 18,5 ming kishini tashkil etgan. 2019 – yilga nisbatan shifokorlar soni 8 ming kishiga ko'paygan. 2024 – yilning yanvar – noyabr oylarida Toshkent tumanida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi jami 185,8 mlrd so'mni tashkil etdi. O'tkan yilning mos davriga nisbatan +9,9% bo'ldi. Hududning jami sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha ulushi 12,7% hissasiga to'g'ri keldi. Tibbiyot sohasida O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlar orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Shu sababli ham sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ulushi ortib bormoqda.

Madaniyat va sport; Viloyatda “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va Sport ishlari vazirligini tashkil etish to‘g‘risida” gi qarordan so‘ng ko‘plab islohatlar amalga oshirildi. Masalan; yaqinda zamonaviy sport majmuasi foydalanishga topshirildi. Viloyatda sport infrtuzilmasi ham rivojlanib, 49 ta stadion, 16 ta suzish havzasi, 38 ta tennis korti, 624 ta sport zali va boshqa sport inshootlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda 1701 ta jismoniy tarbiya jamoalarida 600 mingga yaqin kishi sport bilan shug‘ullanadi.



2- rasm. Toshkent viloyatidagi zamonaviy sport majmuasi

Shuningdek, viloyatda O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, 26 ta sort maktabi, 4 ta ixtisoslashgan sport maktabi, Chirchiq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi va futbol akademiyasi faoliyat yuritib, 1325 nafar murabbiy 34 mingdan ziyod yoshlarni sport bilan muntazam shug‘ullantirmoda.

2.Toshkent viloyati hududining iqtisodiy ko‘rsatkichlari;

Hudud yalpi ichki mahsuloti (YIM) va yalpi hududiy mahsulot (YHM);

2024 – yilning yanvar – sentabr oylarida viloyatda YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 113,0 foizni tashkil etdi. Ahamiyatli jihati shundaki, YAHM defloratsiyasining eng yuqori

ko'rsatkichlari sanoatda – 115,5%, va xizmatlar sohasida – 113% qayd etildi.



3- rasm. 2023 - 2024 yillarning yanvar – sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

2024 – yilda 2023 – yilga nisbatan YAHMda sanoatning ulushi ortib, qishloq xo'jaligining ulushi esa kamayib bormoqda. Bu o'z navbatida viloyat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tendensiyasi kamayib, sanoatning o'sishi shaharlashuv va shahar turmush tarzining tarkib topishiga turtki bo'lmoda.

Sanoat rivoji. 2024 – yilning yanvar – noyabr oylarida Toshkent viloyatida sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 100637,1 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 84,4% ni tashki etdi.



4 - rasm. Sanoat ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlari

Toshkent viloyatida 2024 – yilning yanvar – noyabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 38815,0 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlarini ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini bildiradi.

Toshkent viloyatining Zangiota tumanida – 962 ta, Qibray tumanida – 585 ta, Toshkent tumanida – 580 ta sanoat korxonalari mavjud bo'lib, bu viloyatdagi emg yuqori ko'rsatkichlar hisoblanadi. Odatda bu kabi tumanlarda sanoat tufayli yuzaga keladigan ekologik mummolar nafaqat tuman balki, chegaradosh bo'lgan tumanlar hududida ham ta'sirini sezish mumkin. Bu kabi muammolarini oldini olish maqsadida imkoni bo'lsa, sanoat korxonalari oz bo'lgan tumanlarga ko'chirish tavsiya etiladi. Aks holda, atrof – muhitning salbiy ta'sirning ortib borishini kuzatish mumkin.

Qayd etish kerakki, sanoat tarmog'i iqtisodiy faoliyat turlari ichida yuqori salohiyatiga ega bo'lgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Joriy yilning 1 – dekabr holatiga ko'ra viloyatimizda 6774 sanoat korxonasi faoliyat yuritmoda.

Qishloq xo'jaligi; 2024 – yilning yanvar – dekabr oylarida viloyatda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 41371,6 mlrd so'mni yoki 2023 – yilning mos davriga nisbatan 101,6% ni, shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari

hajmi 19107,2 mlrd so'mni 99,85 hamda chorvachilik mahsulotlari hajmi 22264,4 mlrd so'mni (101,3%) tashkil qildi.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



**5- rasm. Xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va qishloq
chorvachilik ulushi (2024 – yil)**

2024 – yilning yanvar – noyabr oylarida Toshkent viloyatining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining savdo aylanmasi hajmi 848,5 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajmi yangi uzilgan qishloq ug'xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (410,2 mlrd so'm) to'g'ri keladi. 2024 – yilning yanvar oyida sabzavot yetishtirilishi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Bekobod tumanida 33517 tonna va Yangiyo'l 8420 tonna hissasiga to'g'ri kelmoda.

2024 – yilning yanvar – oktyabr oylarida Toshkent viloyatida 109,5 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan. Meva va sabzavotlarning eksport tarkibiga aralsa 48,3 mln. AQSH dollariga teng 94,9 ming tonnadan ortiq sabzavot shuningdek 41,1 mln. AQSH dollari iymatidagi 35,3 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi. Toshkent viloyatida dehqonchilik va bog'dorchilik uchun barcha tabiiy shart – sharoitlar yetarlicha ya'ni agroiklimiy resurslarga boy sanaladi. Navlarni yaxshilash orqali yana ham bu ko'rsatkichlarni yaxshilash mumkin.

2024 -yilning 1 – oktabr holatiga ko'ra, Toshkent viloyatida barcha toifadagi xo'jaliklarda qoramollarning bosh soni 953,8 mingtaga yetgan. Ushbu ko'rsatkich o'tkan yilning mos davriga nisbatan 1,15 ga yoki 10 ming taga ko'paydi.

2024 – yilning 1 – oktabr holatiga ko'ra otlarning umumiy bosh soni 55830 taga yetdi. 2023 – yilning mos davri bilan solishtirganda, 630 taga yoki 1,2% ga ko'paydi. Bundan ko'rinib turibdiki, viloyat chorvachilik mahsulotlari ulushi ham katta.



6 – rasm; Toshkent viloyatida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari ulushi (2024 y.)

2024 – yilning yanvar – sentabr oylarida Toshkent viloyatida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 1660,3 mlrd so'mni yoki 2023 – yilning mos davriga nisbatan 102,4% ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 56,8%ni tashkil ildi. Yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarining eng katta ulushi baliqqa to'g'ri kelgan.

Savdo va xizmatlar sohasi. 2024 – yil yanvar – noyabr oylarida Toshkent viloyati tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 1780,8 mln ASH dollariga yetdi. O'tkan yilning mos davriga nisbatan 2,8%ga ko'paydi.

Import hajmi 3828,3 mln ASH dollariga va o'tkan yilning mos davriga nisbatan 9,0% ga ko'paydi. Endlikda bu ko'rsatkichda eksportning ulushini oshirish uchun. Iqtisodiyotni intensiv tashkil etish va eksportbop jahon talablariga mos mahsulotlar tayyorlash, chet el davlatlari bilan hamkorlik aloqalarini keng yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 foizni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (62,3%), ozi – ovqat mahsulotlari va tirik


hayvonlar (11,5%), turli xil tayyor buyumlar (11,8%) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu borada tayyor buyumlar eksport qilish ko'rsatkichini yaxshilash lozim.




7 – rasm. Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlaridan eng ko'p savdo xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlariga nazar solsak, 2020- yilga nisbatan 2024 – yilda deyarli 3,3 martta o'sganini ko'rish mumkin.

Toshkent viloyatining MDH davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024 – yil yanvar – oktabr oylarida 2275,1 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. Shundan eksport 699,2 mln AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 1575,9 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi. Toshkent viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (26,3%), Qozog'iston (12,4%) hamda Belarus (2,2%) davlatlari bilan qayd etildi.



**8 - rasm. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi,
ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining
qo'shgan hissasi**



**9 - rasm. 2024 – yil yanvar – oktyabr oylarid Tashkent viloyatida
xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari**

Shuningdek, turizm sohasi viloyat hududida yaxshi shakillanmagan. Faqatgina Bo'stonliq tumani turizm sohasiga ixtisoslashgan. Bo'stonliq tumani turizm sohasida nafaqat Tashkent viloyati balki, O'zbekiston turizmida yetakchi ro'l o'ynaydi.

Investitsiyalar. 2024 – yil yanvar – dekabr oylarida Tashkent viloyatida asosiy kapiatalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalariga ko'ra, eng yuqori ko'rsatkich (jami investitsiyalarning 41,3%i) bosha va kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga (29084,8 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Infratuzilma. Viloyatda transport xizmatlari bo'yicha 10 oyda ,7,7 trln. So'mdan ziyod xizmatlar ko'rsatildi. 2024 – yilning yanvar – oktabr oylarida Tashkent viloyatida transport xizmatlari hajmi 7762,9mlrd so'mni tashkil etib, 2023 – yilning mos davriga nisbatan ushbu xizmat turi 13,1% ga oshgan. Transport xizmatlarining umumiy hajmida 91,9% bilan avtomobil transport xizmatlari ustunlik qiladi.

Hududlar kesimida mazkur yo'nalishda nisbatan yuqori ko'rsatilgan xizmatlar ulushi Yangiyo'l tumanida (8,3%), Chirchiq shahrida (7,8%) hamda Angren shahrida (7,4%) hissasiga to'g'ri keladi. Albatta shahar hududlarda avtomobil transportidan ko'proq foydalaniladi.

2025 – yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, viloyatimizda axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami soni 620 ta bo'lib, 2024 – yilning yanvar – dekabr oylarida ushbu sohada 194 ta korxonalar yangi tashkil etilib, ularning hammasi kichik biznes subyektlaridir. Hududlar kesimida axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni bo'yicha, Chirchiq shahri – 70 ta, Toshkent tumani - 64 ta, Angren shahri 52 ta bilan yetakchilik iladi. Chekka hamda tog'li tumanlarda bu ko'rsatkich 4 – 5 barobar kamroqni tashkil etadi.

Xulosa. Umuman olganda Toshkent viloyati iqtisodiy – ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari so'nggi 4-5 yilliklarda 10 foizdan kam bolmagan suratlarda o'sib kelmoqda. Buni O'zbekiston hududidagi boshqa viloyatlarga nisbatan solishtirganda bu ko'rsatkich nisbatan yaxshi hisoblanadi. Ammo, viloyat hududidagi mavjud tabiiy va ijtimoiy – iqtisodiy resurslar bo'yicha solishtirganda, viloyatlar ichida eng oldingi o'rinlarni egallaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, viloyat hududida mavjud barcha resurslardan to'laqonli intensiv foydalanilmagan. Viloyat mavjud resurslaridan to'laqonli , samarali va intensiv holda foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikda yuqori natijalarni qayd etish bilan birga aholining turmush darajasi va ijtimoiy ko'rsatkichlar ham hamohang holda yaxshilanishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Avezov M. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyadan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent – 2022y. 9- bet.
2. Bo'riyeva M.R., Tojiev Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari (o'quv qo'llanma). “Tafakkur“ Toshkent – 2011. – bet.
3. Muhammedov O. Siyosiy geografiya va tashqi iqtisodiy aloqalar. Samarqand – 2021y. 47 – bet.

4. Namozo J.A., Mirislomov M.A., Turg'unova R.F. Suv resurslaridan qishloq xo'jaligida foydalanish geografiyasi (Toshkent viloyati misolida) Toshkent "Zeboprint", 2025y. - 103b.

5. O'zbekiston iqtisodiy – ijtimoiy geografiyasi. Chirchi – 2023y. " Olmali kitob business" 49 – bet.

6. <https://uz.wikipedia.org/wiki>.

7. <https://t.me/toshvilstatuz>